

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**IX RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

OKTYABR, 2025

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**IX RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, oktyabr

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
IX Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 9-son (oktyabr, 2025-yil). – 71 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 23-oktyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi IX Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

KIMYO FANLARI

Narmanova Feruza, Ibragimov Aziz, Turayev Xayit, Toirova Gulshoda

Zn(II) NING 4-AMINOBENZOY KISLOTASI BILAN $\{[Zn(H_2O)_2(SO_4)_2](C_7H_7NO_2)_2\}_n$

KOMPLEKS BIRIKMASI SINTEZI 5-9

TEXNIKA FANLARI

Кузибоев Шухназар

РАЗРАБОТКА КОМПОЗИЦИОННЫХ СОРБЕНТОВ НА ОСНОВЕ ЖЕЛЕЗОСОДЕРЖАЩИХ
ОТХОДОВ ДЛЯ ОЧИСТКИ СТОЧНЫХ ВОД ОТ НЕФТЕПРОДУКТОВ 10-16

Mirjalolova Nargiza

MULTIMEDIALI ALOQA TARMOQLARIDA HUYUMLARNI ANIQLASHNING ILG'OR

TEKNOLOGIYALARI 17-23

TARIX FANLARI

Jo'raboyev Ulug'bek

TURKISTON ASSRDA SUD TIZIMI FAOLIYATI 24-26

IQTISODIYOT FANLARI

Суюнова Саодат

РОЛЬ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ В РАЗВИТИИ ЭКОТУРИЗМА 27-32

Ashurova Sitora

ENHANCING INFLATION FORECASTING THROUGH HYBRID ECONOMETRIC AND MACHINE
LEARNING APPROACHES IN EMERGING MARKETS 33-36

FALSAFA FANLARI

Xoshimov Hakimjon

O'ZBEK JAMIYATIDA YOSHLARNING IQTISODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING

IJTIMOIIY MEKANIZMLARI 37-42

FILOLOGIYA FANLARI

Norbekova Gulrux

INGLIZ TILIDA AFSUNGA OID BIRLIK LARNING KONSEPTUAL ASOSLARI 43-46

Abdurahmonova Nilufar

LEKSIKOGRAFIYADA TERMINOLOGIK LUG'ATLARNING O'RNI VA AHAMIYATI 47-49

YURIDIK FANLAR

Каюмова Малика

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПРЕСТУПНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ:
ВЫЗОВЫ ДЛЯ УГОЛОВНОГО ПРАВА 50-53

PEDAGOGIKA FANLARI

Abdullayeva Ziroatxon

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH JARAYONIDA TALABALARDA
REFLEKTIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY VAZIFALARI VA PEDAGOGIK
IMKONIYATLARINI ANIQLASH 54-56

Shermatova Saxobaxon

KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA OLIY TA'LIMDA INDUKTIV VA DEDUKTIV FIKRLASH
JARAYONLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY KONSEPSIYASINI
ASOSLASH 57-59

Baratova Yulduz

TARBIYACHILARDA KOMMUNIKATIV SALOHİYATNI SHAKLLANTIRISHNING METODIK
ASOSLARI

60-65

TIBBIYOT FANLARI

Fayziyeva Nozima

YOSHLARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING TIBBIY-PEDAGOGIK
ASOSLARI

66-70

LEKSIKOGRAFIYADA TERMINOLOGIK LUG'ATLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Abdurahmonova Nilufar Laziz qizi

magistr, Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Email: abdurahmonovanilufar33@gmail.com

Tel: +998 88 585 64 30

Shahrisabz, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada leksikografiya fanining muhim yo'nalishlaridan biri — terminologik lug'atlar yaratish masalasi yoritilgan. Unda terminlarning til tizimidagi o'rne, ularning fan va texnika rivojidagi ahamiyati, shuningdek, terminologik leksikografiyaning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Muallif tomonidan termin tushunchasining mazmun-mohiyati, uning kasbiy leksika bilan aloqasi hamda terminologik tizimlarning shakllanish qonuniyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, terminologik lug'atlar nafaqat fan tilini rivojlantirishda, balki ilmiy tafakkur, milliy terminologiya va davlat tili siyosatini mustahkamlashda ham beqiyos ahamiyatga ega. Ular orqali o'zbek tilining ilmiy salohiyati, xalqaro maydondagi mavqeyi va madaniy mustaqilligi yanada mustahkamlanadi.

Kalit so'zlar: leksikografiya, terminologiya, termin, terminologik leksika, terminologik lug'at, bir tilli va ko'p tilli lug'atlar, milliy termin siyosati.

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF TERMINOLOGICAL DICTIONARIES IN LEXICOGRAPHY

Abdurahmonova Nilufar

Master's Student, Shakhrisabz State Pedagogical Institute

Annotation. This article highlights one of the key directions of lexicography — the creation of terminological dictionaries. It analyzes the place of terms within the language system, their importance in the development of science and technology, as well as the theoretical and practical foundations of terminological lexicography. The author discusses the essence and meaning of the concept of "term," its relation to professional vocabulary, and the regularities in the formation of terminological systems. The research results show that terminological dictionaries play an invaluable role not only in the development of the language of science but also in strengthening scientific thinking, national terminology, and state language policy. Through such dictionaries, the scientific potential of the Uzbek language, its position in the international arena, and its cultural independence are further reinforced.

Key words: lexicography, terminology, term, terminological vocabulary, terminological dictionary, monolingual and multilingual dictionaries, national terminology policy.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymdif-y2025v1i9/n09>

Kirish. Leksikografiya sohasida amalga oshiriladigan yirik ishlardan biri – terminologik lug'atlardir. N.Mahmudov ta'kidlaganidek, "har qanday fanni o'rganish, o'zlashtirish uchun uning alifbosidan – terminologiyasidan xabardorlik zarur", "terminlar har qanday fan tilining asosini tashkil etishi haqidagi qoida bugun aksioma maqomini olib bo'lgan" [4; B.129.]. Bu fikr terminlarning nafaqat tilshunoslikda, balki barcha ilmiy sohalarda markaziy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Termin chegaralangan leksik qatlamga mansub lug'aviy birlik sifatida terminologik tadqiqotlarning asosiy obyekti, terminologik lug'atlar yaratishning muhim manbayi hisoblanadi. Leksikologiya umumadabiy til lug'aviy birliklarini o'rganish bilan shug'ullansa,

leksikografiya ana shu lug'aviy birliklarni to'plash, tartibga solish va tavsiflash orqali lug'atlar yaratish nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanadi. Shunga o'xshab, terminologiya maxsus lug'aviy birliklarni, ya'ni terminlarni tadqiq etuvchi fan sohasi hisoblanadi. Terminlar asosida lug'atlar yaratish hamda yaratilgan lug'atlar majmuyi ko'pchilik tilshunoslar va mutaxassislar tomonidan "terminologik leksikografiya", "ilmiy-texnik leksikografiya" deb nomlanib keladi [3; B.29.]. Bu turdagi lug'atlar fan, texnika, tibbiyot, huquq, pedagogika va boshqa ko'plab sohalarda qo'llanadigan atamalarni tizimlashtiradi hamda ularning ma'nosini aniqlashga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan terminologik lug'atlar nafaqat ilmiy tadqiqotlar uchun, balki ta'lim jarayoni, amaliy tarjima, hujjat yuritish, o'quv qo'llanma yaratish kabi sohalarda ham bevoita metodik manba hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Termin kasbiy ma'no bildiruvchi, kasbiy tushunchani ifodalovchi va shakllantiruvchi ayrim obyektlar va ular o'rtasidagi aloqalarni muayyan kasblar nuqtayi nazaridan bilish hamda o'zlashtirish jarayonida ishlatiladigan so'z yoki birikmadir. Har bir sohaning o'ziga xos tushunchalari bor. Bu tushunchalarning jami shu sohaning tushunchalar sistemasini tashkil etadi. Shu sohaga oid tushunchalarni ifodalovchi maxsus terminlar ham mavjud. Ana shu terminlarning jami shu sohaning terminologik sistemasini tashkil etadi, ya'ni shu soha terminologiyasi bo'ladi [2; B.150.].

Boshqa tomondan, terminlar tizimi tilning ichki qonuniyatlariga hamda ijtimoiy ehtiyojlarga tayanadi. Demak, til va terminologiya o'zaro dialektik birlikda rivojlanadi. Masalan, yangi texnologiyalar, innovatsion jarayonlar yoki ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan yangi tushunchalarni ifodalash uchun yangi terminlarning paydo bo'lishi tabiiydir. Shu jihatdan terminologik lug'atlar tildagi yangiliklarning tizimlashtirilgan manbayi sifatida ham katta lingvistik ahamiyat kasb etadi.

Biror bir soha va unga oid terminlarni til va jamiyat munosabatlari bilan tenglashtirish mumkin: shu tilda muloqot qiladigan xalq, ya'ni jamiyat bo'lsagina til yashashda, rivojlanishda davom etganidek, ma'lum kasbiy sohaning yashovchanligi ham o'z termin, leksikasiga egaligi bilan belgilanadi; ular birgalikda bir butunlikni tashkil qiladi. Demak, tilning yashovchanligi kabi har bir sohaning barqarorligi ham terminlar tizimining mukammalligiga bog'liqdir.

O'zbek adabiy tili leksikasi qonuniyatlari negizida shakllangan terminologik leksika tarixini qadimgi turkiy til (VII-X) terminologiyasi, eski turkiy til (XI-XIV) terminologiyasi, eski o'zbek adabiy tili (XV-XX asr boshi) terminologiyasi, sho'rolar davri o'zbek tili terminologiyasi va istiqlol davri o'zbek tili terminologiyasi tarzida davrlashtirish salkam o'n to'rt asrlik vaqt mobaynida terminologik leksika tizimida intralingvistik va ekstralingvistik omillar negizida sodir bo'lgan jarayonlarni anglab yetish imkonini beradi [1; B.11.].

Terminologik lug'at faqat bir tor soha terminlarini tushuntirib berishi yoki bilimning turli xil, odatda, yondosh sohalari terminlarini qamrab olishi mumkin. Shu bilan birga, terminologik lug'at bir tilli bo'lishi (bir tildagi muayyan soha terminologiyasi jamlanib, uning izohi ayni shu tilda beriladi) yoki ikki, uch va ko'p tilli bo'lishi (bir tilning terminlari boshqa til yoki boshqa tillar terminlari bilan izohlanadi) ham mumkin [3; B.30.]. Bir tilli lug'atlar terminlarning o'z tili doirasidagi izohini bersa, ko'p tilli lug'atlar turli tillar o'rtasidagi ekvivalentlikni belgilaydi, tarjima va xalqaro ilmiy hamkorlik jarayonida muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda o'zbek tilida elektron ko'p tilli terminologik lug'atlar yaratish, ularni sun'iy intellekt asosidagi avtomatik tarjima tizimlari bilan uyg'unlashtirish bo'yicha izlanishlar

olib borilmoqda. Bunday lug'atlar foydalanuvchi ehtiyojini tezkor qondirish, terminlarning kontekstual ma'nosini tahlil qilish hamda sinonim-antonim munosabatlarini avtomatik tarzda aniqlash imkonini beradi.

Shuningdek, terminologik lug'atlarni tuzishda ularning amaliy qiymatini, ya'ni foydalanuvchilarga qulaylik darajasini e'tiborga olish lozim. Lug'at foydalanuvchilari — soha mutaxassislari, talabalar, tadqiqotchilar, tarjimonlar va keng kitobxon ommasi — kerakli terminlarni tez va aniq topa olishlari uchun lug'atlar tizimli, mantiqan izchil, alifbo tartibida yoki konseptual tuzilishda tuziladi. Har bir terminning izohi qisqa, aniq, mantiqan to'liq bo'lishi, zarur hollarda sinonim va antonimlari, shuningdek, misollari bilan boyitilishi maqsadga muvofiqdir.

Terminologik lug'atlarni yaratishda zamonaviy texnologiyalar — elektron bazalar, korpus lingvistika usullari, avtomatik tahlil dasturlari — keng joriy etilmoqda. Bu jarayon lug'at tuzuvchilarga terminlarning qo'llanish chastotasi, semantik maydoni, morfologik tuzilishini tahlil qilish imkonini beradi. Shu orqali lug'atlar nafaqat matn shaklida, balki interaktiv elektron formatlarda, foydalanuvchi uchun qulay interfeysda ham ishlab chiqilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, terminologik lug'atlar nafaqat biror fan sohasining leksik asosini shakllantiradi, balki ilmiy tafakkurning rivojida, tilning normativ holatini belgilashda, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyini mustahkamlashda ham beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ular orqali milliy terminologiya tizimi boyiydi, fan va texnika tili mukammallashadi hamda o'zbek tili xalqaro ilmiy maydonda o'z o'rnini mustahkamlaydi.

Bundan tashqari, terminologik lug'atlar milliy madaniyat va ilmiy merosni saqlash, yangi avlodni ona tili va ilmiy tafakkur uyg'unligida tarbiyalashda ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bois leksikografik faoliyatda terminologik lug'at tuzish ishlari dolzarb, istiqbolli va strategik ahamiyatga ega ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Nodirabegim, 2019. – B. 11.
2. Қўнғурув Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 150.
3. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – Б. 29-30.
4. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2017. – Б. 129.
5. Миртожиев М. М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. – Тошкент: ЎЗМУ, 2000. – Б. 134.
6. Умаров Э. Эски ўзбек луғатлари. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – Б. 37.
7. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2002. – Б. 164.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

IX RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, oktyabr

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
IX Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 9-son (oktyabr, 2025-yil). – 71 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 23-oktyabr

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.